“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Elektron tijoratda kichik tadbirkorlik subyektlarining raqobat huquqlarini himoya qilish masalalari

E’zoza Razzaqova,
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti
Huquqshunos
e-mail: Razzaqovaezoza22@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada elektron tijorat sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining raqobat huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom normalari raqamli iqtisodiyot xususiyatlari nuqtayi nazaridan tanqidiy ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida Xitoy Xalq Respublikasining 2019-yildagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonuni va Yevropa Ittifoqining Raqamli bozorlar to‘g‘risidagi akti (DMA) normalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilgan.

Калит сўзлар. elektron tijorat, kichik tadbirkorlik, raqobat huquqi, raqamli platforma, ustun mavqe, ustun muzokara kuchi, Xitoy tajribasi.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые механизмы защиты конкурентных прав субъектов малого бизнеса в сфере электронной коммерции. В частности, критически рассматриваются нормы Положения, утвержденного Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 256 от 1 мая 2024 года, с точки зрения особенностей цифровой экономики. В ходе исследования проведен сравнительный анализ с Законом Китайской Народной Республики «Об электронной коммерции» от 2019 года и нормами Закона о цифровых рынках (DMA) Европейского союза.

Ключевые слова. электронная коммерция, малый бизнес, антимонопольное законодательство, цифровая платформа, доминирующее положение, доминирующая переговорная сила, китайский опыт.

Annotation. This article analyzes the legal mechanisms for protecting the competition rights of small business entities in the field of e-commerce. In particular, the norms of the Regulation, approved by Resolution No. 256 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 1, 2024, are critically examined from the perspective of the characteristics of the digital economy. During the study, a comparative analysis was conducted with the Law of the People's Republic of China "On Electronic Commerce" of 2019 and

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

the norms of the Digital Markets Act (DMA) of the European Union.

Keywords. e-commerce, small business, competition law, digital platform, dominant position, dominant bargaining power, Chinese experience.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari shakllanib, ayniqsa elektron tijorat sohasida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi hamda sun’iy intellekt asosidagi yechimlarning amaliyotga keng joriy etilishi natijasida tadbirkorlik faoliyati an’anaviy shakldan raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan murakkab tizimga aylangan. Bu jarayon esa, o‘z navbatida, raqobat muhitining yangi qirralarini yuzaga keltirib, uni huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini keskin oshirdi. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu borada bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-son Qonuni[1] elektron savdo faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamladi. Shu bilan birga, 2023-yil 3-iyulda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni[2] milliy raqobat huquqi tizimida tub burilish yasab, ayniqsa raqamli bozorlarga oid munosabatlarni tartibga solishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur qonunning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, unda ilk bor “raqamli platforma” tushunchasi mustahkamlanib, raqamli muhitda ustun mavqeni aniqlash mezonlari belgilab berildi. Xususan, foydalanuvchilar soni, tranzaksiyalar hajmi, tarmoq samarasi (network effect) kabi ko‘rsatkichlar orqali platformalarning bozordagi real ta’siri baholanishi nazarda tutilgan. Bu esa, o‘z navbatida, yirik raqamli platformalarning bozordagi ustun mavqeini suiiste’mol qilish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy elektron tijorat tizimlarida algoritmlar orqali narxlarni shakllantirish, foydalanuvchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda individual takliflar ishlab chiqish kabi mexanizmlar keng qo‘llanilmoqda. Biroq, bunday algoritmik boshqaruv ayrim hollarda insofli raqobat tamoyillarining buzilishiga, ya’ni narxlarni sun’iy oshirish, ayrim tadbirkorlarni platformadan siqib chiqarish yoki ularga nisbatan kamsituvchi shartlar qo‘llash kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, algoritmik narx belgilash va raqamli platformalarning faoliyatini huquqiy nazorat qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 2026-yilga kelib O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning ulushi sezilarli darajada ortib borayotgan bir paytda, kichik va o‘rta biznes subyektlarining manfaatlarini himoya qilish, ularning yirik platformalar bilan teng sharoitlarda raqobatlashishini

ta’minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud huquqiy mexanizmlar ayrim hollarda tez o‘zgaruvchan raqamli bozor sharoitlariga moslashishda yetarli darajada samarali emas.

Ushbu maqolada elektron tijoratda kichik tadbirkorlik subyektlarining raqobat huquqlarini himoya qilish masalasi, insofsiz raqobat, ustun mavqeni suiiste’mol qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Elektron tijorat zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, u orqali amalga oshiriladigan munosabatlar alohida huquqiy tartibga solishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-son Qonuniga muvofiq, elektron tijorat axborot tizimlaridan, shu jumladan internet tarmog‘idan foydalangan holda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish, sotib olish va boshqa bitimlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat sifatida e’tirof etiladi [3]. Mazkur ta’rifdan kelib chiqib, elektron tijoratning asosiy belgilariga bitimlarning masofaviy tarzda amalga oshirilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilishi hamda sotuvchi va iste’molchi o‘rtasida bevosita aloqaning yo‘qligi kiradi. Shu bilan birga, elektron tijorat subyektlari sifatida nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik tadbirkorlik subyektlari ham faol ishtirok etadi. Kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotning muhim segmenti hisoblanib, ular bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, bandlikni ta’minlash hamda raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, raqamli platformalar orqali faoliyat yuritish sharoitida ular ko‘pincha yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan teng bo‘lmagan sharoitlarda raqobatlashishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ularning raqobat huquqlarini samarali himoya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Raqobat huquqi iqtisodiy munosabatlarda adolatli va sog‘lom raqobatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuniga muvofiq, ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ushbu mavqeni suiiste’mol qilishi taqiqlanadi [4]. Ayniqsa, raqamli bozorlarda bunday holatlar ko‘proq uchrab, kichik tadbirkorlik subyektlarining manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Elektron tijorat sharoitida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqobat huquqlarining ayrim jihatlari turli shakllarda cheklanishi mumkin. Xususan, raqamli platformalar va yirik bozor ishtirokchilarining ustun mavqei quyidagi asosiy huquqlarning buzilishiga yoki cheklanishiga olib kelishi ehtimoli mavjud:

Birinchidan, bozorga erkin kirish huquqi cheklanishi mumkin. Kichik tadbirkorlar platformaga kirishda ro‘yxatdan o‘tish, texnik talablar va komissiya to‘lovlari sababli iqtisodiy va tashkiliy to‘siqlarga duch keladi.

Ikkinchidan, teng raqobat sharoitida faoliyat yuritish huquqi buzilishi ehtimoli mavjud. Platforma yirik sotuvchilarga ustunlik

berib, kichik tadbirkorlarning mahsulotlarini pastroq pozitsiyada ko‘rsatishi mumkin.

Uchinchidan, ma’lumotlarga teng kirish huquqi cheklanadi. Raqamli platformalar foydalanuvchi ma’lumotlarini to‘liq o‘z nazoratida saqlab, kichik tadbirkorlar bu ma’lumotlardan cheklangan darajada foydalanadi.

To‘rtinchidan, narx belgilashda mustaqillik huquqi algoritmik tizimlar orqali bilvosita cheklanishi mumkin. Platforma tavsiya etgan yoki “majburiy optimal narxlar” kichik tadbirkorning erkin narx siyosatini cheklaydi.

Beshinchidan, bozor axborotiga teng kirish huquqi buzilishi mumkin, chunki yirik platformalar qidiruv natijalari va reklama joylashuvini o‘z manfaatiga mos ravishda boshqaradi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori O‘zbekistonRespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori va uning1-ilovasi — “Tovar yoki moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoxudshaxslar guruhining ustun mavqeyini yoki ustun muzokara kuchini aniqlash vae’tirof etish tartibi to‘g‘risida”gi[5] hujjat — raqobat munosabatlarini tartibgasolishda muhim huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Qarorda qator yangiliklar va muammolarga yechimlar berilgan. Mazkur qarorning eng muhim yutug‘i — ustun mavqe va ustun muzokara kuchini aniqlashning yagona tartibga solingan mezonlari joriy etilganidir. Bu orqali amaliyotda subyektiv yondashuvlarning oldi olinadi va raqobat organlari uchun aniq huquqiy asos yaratiladi. Ikkinchidan, qarorda bozor ulushi, iqtisodiy kuch, kontragentlarga ta’sir darajasi kabi mezonlarning belgilanishi raqobatni baholashni tizimlashtiradi. Uchinchidan, hujjat yuridik va iqtisodiy tahlilni birlashtirgan yondashuvga ega, bu esa faqat formal ko‘rsatkichlarga emas, balki real bozor holatiga asoslanishni ta’minlaydi. To‘rtinchidan, qaror raqobatni tartibga soluvchi organlar vakolatlarini aniqlashtiradi, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida aniqlikni oshiradi. Biroq amaliyot yuzasidan olib qaraydigan bo‘lsak, unda ba’zi kamchiliklarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Birinchidan, ustun mavqeni aniqlashda raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha inobatga olinmagan. Xususan, algoritmik boshqaruv, platforma ekotizimi va tarmoq samarasi mezonlari yetarlicha aniq aks etmagan.

Ikkinchidan, ustun muzokara kuchi tushunchasi amaliy jihatdan noaniq bo‘lib qolgan. Bu esa huquqni qo‘llashda turli talqinlarga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlarining raqamli platformalardagi zaif pozitsiyasi uchun maxsus himoya mexanizmlari mavjud emas. To‘rtinchidan, qarorda algoritmik narx belgilash va platforma ichidagi ranking (reyting) tizimlarini nazorat qilish mexanizmlari ko‘zda tutilmagan. Mazkur qaror normalari amaliyotga tatbiq etilganda bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, raqamli platformalarda ustun mavqeni aniqlashda real bozor kuchini to‘liq baholash qiyin bo‘lib

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qoladi. Masalan, platformada foydalanuvchilar soni yuqori bo‘lsa-da, kichik tadbirkorlar uchun bu platforma ichida ko‘rinish (visibility) cheklanishi mumkin.

Shu bilan birga, algoritmik shaffoflik yo‘qligi sababli raqobat organlari platforma ichidagi real diskriminatsiyani aniqlashda qiyinchilikka duch keladi. Uchinchidan, kichik tadbirkorlar uchun komissiya siyosati va shartlar bir tomonlama o‘zgartirilishi mumkin, bu esa ularning barqaror biznes yuritishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, amaliyotda yirik platformalar va kichik sotuvchilar o‘rtasidagi muzokara kuchi nomutanosibligi kuchayib boradi. Beshinchidan, qarordagi mezonlar asosida aniqlash jarayoni ko‘pincha statistik ma’lumotlarga tayanadi, lekin sifat omillarini yetarli hisobga olmaydi, bu esa noto‘g‘ri huquqiy xulosalarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori[6] raqobat munosabatlarini tartibga solishda muhim huquqiy asos bo‘lsa-da, elektron tijorat sharoitida kichik tadbirkorlik subyektlarining raqobat huquqlarini to‘liq va samarali himoya qilish uchun uni raqamli iqtisodiyot xususiyatlariga mos ravishda takomillashtirish zarur.

Elektron tijoratda kichik tadbirkorning asosiy zaifligi shundaki, u ko‘pincha platformaga kirish shartlarini mustaqil belgilay olmaydi. Platforma operatori bir vaqtning o‘zida bozorga kirish “darvozaboni”, reklama vositachisi, reyting tuzuvchi, qidiruv algoritmi egasi, to‘lov infratuzilmasi nazoratchisi va ba’zan o‘zi ham sotuvchi sifatida maydonga chiqadi. Natijada shartnomaviy tenglik formal ko‘rinishda saqlansa-da, iqtisodiy jihatdan tomonlar o‘rtasida nomutanosiblik kuchayadi. O‘RQ-850-son “Raqobat to‘g‘risida”gi[7] qonunining muhim yangiligi shundaki, unda raqamli platforma operatorining ustun mavqei va ustun muzokara kuchiga oid yondashuv mustahkamlandi hamda bu yo‘nalishdagi ikkilamchi tartibga solish uchun huquqiy asos yaratildi. Mazkur asosda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori raqobat organlari uchun muhim protsessual mezonlarni belgilab berdi[8].

Biroq raqamli platformalar bilan bog‘liq munosabatlarni an’anaviy bozor ulushi mezonlari bilangina baholash yetarli emas. Raqamli bozorda tarmoq samarasi, ma’lumotlarni jamlash, foydalanuvchini platformada ushlab qolish darajasi, ko‘p tomonlama bozor tuzilmasi va algoritmik boshqaruv raqobat kuchini aniqlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu ma’noda Yevropa Ittifoqining Digital Markets Acti (DMA)[9] muhim qiyosiy manba hisoblanadi. Mazkur reglament “gatekeeper” maqomiga ega yirik platformalarga oldindan belgilangan majburiyatlar yuklaydi: o‘z xizmatlariga asossiz ustunlik bermaslik, biznes foydalanuvchilarning platformada orttirilgan ma’lumotlardan foydalanishiga to‘sqinlik qilmaslik, uchinchi tomon dasturlari va xizmatlari bilan o‘zaro ishlashga to‘sqinlik qilmaslik hamda ayrim hollarda ma’lumotlarni birlashtirish uchun foydalanuvchi roziligini ta’minlash kabi talablar shular jumlasidandir. DMA ning asosiy afzalligi shundaki, u an’anaviy antimonopoliya ishini kutib o‘tirmasdan, (ex ante) tartibga solish yo‘li bilan raqobatga xavf tug‘diruvchi xatti-harakatlarni oldindan cheklaydi.

Xitoy Xalq Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi[10] qonuni raqamli bozorlarni kompleks tartibga

solish bo‘yicha eng ilg‘or huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonun nafaqat tadbirkorlarni, balki elektron platforma operatorlarini ham bevosita huquqiy javobgar subyekt sifatida belgilashi bilan ahamiyatlidir. Qonunga muvofiq platformalar o‘z maydonchasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning intellektual mulk huquqlari, iste’molchilar huquqlari hamda savdo xavfsizligi uchun javobgar hisoblanadi. Bu esa platformalarni faqat vositachi emas, balki faol huquqiy subyekt sifatida ko‘radi. Shuningdek, Xitoy qonunchiligida “Er xuan yi” deb ataluvchi amaliyot — ya’ni platformalarning tadbirkorlarni faqat bitta platformada ishlashga majburlashi qat’iyan taqiqlangan.[11. 35-modda] Ushbu norma raqobatni cheklovchi amaliyotlarni bartaraf etish va kichik biznes subyektlarining bozorga kirishini ta’minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Xitoy va Yevropa Ittifoqi raqamli bozorlarni tartibga solishda ancha qat’iy va innovatsion yondashuvni qo‘llamoqda. Xitoy platforma javobgarligini kuchaytirgan bo‘lsa, Yevropa Ittifoqi “gatekeeper” tushunchasi orqali raqamli monopoliyalarni oldini olishga intilmoqda. O‘zbekiston amaliyotida esa ushbu yondashuvlar hali to‘liq implementatsiya qilinmagan. Xususan, algoritmik audit mexanizmlari, ma’lumotlar ustidan nazorat (data governance) va platformalar o‘rtasidagi raqobatni ochiqlashtirish tizimlari yetarlicha rivojlanmagan.

Elektron tijorat va raqamli platformalar rivojlanishi raqobat huquqining yangi bosqichga o‘tishini talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 256-son qarori bu yo‘nalishda muhim huquqiy asos bo‘lsa-da, u raqamli iqtisodiyotning murakkab tuzilmasini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli raqobat huquqini takomillashtirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi: “raqamli darvozabon” institutini joriy etish, algoritmik audit mexanizmlarini yaratish, platforma shartnomalari uchun standartlashtirilgan minimal talablarni belgilash hamda ma’lumotlar monopoliyasini cheklash. Mazkur o‘zgarishlar kichik tadbirkorlarning raqamli bozorda teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta’minlashga va raqobat muhitining adolatli shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi tahrirdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-son Qonuni

2.2023-yil 3-iyulda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni

3.O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi tahrirdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-son Qonuni. 3-modda.

4.2023-yil 3-iyulda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni. 13-modda.

4.Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori va uning1-ilovasi - “Tovar yoki moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoxudshaxslar guruhining ustun mavqeyini yoki ustun

muzokara kuchini aniqlash vae’tirof etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi. Birinchi ilova.

5.Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori va uning1-ilovasi - “Tovar yoki moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoxudshaxslar guruhining ustun mavqeyini yoki ustun muzokara kuchini aniqlash vae’tirof etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi. Birinchi ilova.

6.2023-yil 3-iyulda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni

7.Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori va uning 1-ilovasi - “Tovar yoki moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoxudshaxslar guruhining ustun mavqeyini yoki ustun muzokara kuchini aniqlash vae’tirof etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi. Birinchi ilova.

8.Yevropa Ittifoqining Digital Markets Acti (DMA). Digial markets act

9.Xitoy Xalq Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonuni. E-Commerce Law of the People's Republic of China

10.Xitoy Xalq Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonuni. 35-modda. E-Commerce Law of the People's Republic of China article 35.